

**O‘ZBEKISTON UMUMTA’LIM MAKTABALARIDA NEMIS TILI**  
**O‘QITILISHIDA GERMANIYANING “KLETT VERLAG”**  
**NASHRIYOTI DARSLIKLARDAN**  
**FOYDALANISH (MOSLASHTIRISH)NING AYRIM MASALALARI**

**Mahmudova Z.S**  
**ChDPU 2-kurs magistranti**  
**Ilmiy rahbar**  
**Prof., f.f.n. X.R.Raximov**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Germaniyaning „Klett-Verlag“ nashriyoti tomonidan yaratilgan nemis tili darsliklarini O‘zbekiston umumta’lim maktablariga joriylanishining ayrim masalalari, shuningdek mamlakatimizda nemis tilini o‘rganish holati haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Adaptatsiya, didaktika, metodika, fonetika, lingvistik soddalashtirish, ijtimoiy shakl, tovushlar identifikatsiyasi

**Аннотация** В данной статье говорится о некоторых вопросах внедрения в общеобразовательных школах Узбекистана учебников немецкого языка, созданных немецким издательством «Клемт-Верлаг», а также о состоянии изучения немецкого языка в нашей стране.

**Ключевые слова:** Адаптация, диадактика, методика, фонетика, языковое упрощение, социальная форма, определение звуков;

**Abstract.** This article talks about some issues of the introduction of German language textbooks created by the German publishing house "Klett-Verlag" to general education schools of Uzbekistan, as well as the state of German language learning in our country.

**Key words:** Adaptation, didactics, methodology, phonetics, linguistic simplification, social form, identification of sounds.

**Kirish.** “Ma’lumki mamlakatimizda 2023- yil „, Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yili sifatida tariximizda muhrlandi. Aynan shu ma’noda xorijiy tillarni o‘qitish borasidagi yangi tadbirdardan biri o‘zbek maktablarida Germanianing Klett nashriyoti chiqargan nemis tili darsliklar majmuasini moslashtirilgan xolda ishlatilayotgani dolzARB masalaga aylandi.

Respublikmiz umumta’lim maktablarida 3,1 mingga yaqin nemis tili o‘qituvchisi 450 mingdan ziyod o‘quvchiga nemis tilini o‘rgatmoqda. Nemis tili o‘ragniladigan mavjud maktablarning 9 tasida esa nemis tili chuqurlashtirib o‘rganilmoqda.

Bunga misol qilib ToshkentdagI 60-sonli nemis tiliga ixtisoslashgan I.V.Gyote nomli maktab, Urganch shahridagi 19- sonli umumiy o‘rta ta’lim maktab kabilarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Xorijiy tilni mukammal egallashda o‘quv materiallarining o‘rni ayniqsa katta didaktik ahamiyatga ega. Ushbu darsliklar orqali o‘zbek o‘quvchilari Germaniya haqida juda ko‘plab muhim tarixiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga oid didaktik materiallar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Darsliklar nafaqat o‘quvchi uchun, balki o‘qituvchi uchun ham maqsadga samarali erishishda, dars jarayonini mukammal tashkil etishda ko‘makchi vazifasini o‘taydi. O‘tgan davrlar mobaynida maktablarda turli xil nemis tili darsliklari amaliyatga tatbiq etildi, misol uchun „Assalom Deutsch“, „Deutsch mit Spaß“ kabilarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Ayni kunda O‘zbekistonning rivojlangan mamlakatlar bilan har tomonlama o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengayganini yaqqol ko‘rinishini maktablarda chet el, xususan Germanianing Klett nashriyoti tomonidan yaratilgan nemis tili darsliklarining adaptatsiyasi joriylanishi misolida ko‘rshimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining birinchi o‘rinbosari A. Umarov Germaniya tashkilotlari delegatsiyasi bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda (2019) Klett –Verlag kompaniyasining nashriyot vakili X.Sheffer, Germanianing chet el maktablari Markaziy boshqarmasi koordinatori (SFA) Barbara Dambolt hamda Toshkent shahridagi Gyote instituti Tillar bo‘limi boshlig‘i D.Muhammadinovadan

iborat delegatsiya vakillari tomonidan O‘zbekiston mакtablarida Klett –Verlag kompaniyasining nemis tili darsliklarini joriy etish masalasi muhokama qilingan. Quvonarli jihat shundaki, bu darslik 2018-2019 o‘quv yilida Samarqand, Farg‘ona, Urganch va Toshkent shahridagi maktablarda o‘tkazilgan tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan va bugungi kunda O‘zbekiston umumta‘lim maktablarda foydalanib kelinmoqda.

Darslik 1-11 sinflar uchun „O‘quvchi kitobi“, (Kursbuch), „Mashq daftari (Übungsheft) hamda „O‘qituvchi kitobi“ (Lehrerhandbuch) lardan iborat.

Aslida darsliklarni moslashtirish nega muhim!?

O‘quv materiallari umumta‘lim maktablarda davlat ta’lim standarti talablariga asoslanib moslashtiriladi. Moslashtirishning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Jumladan:

- Mavjud material maqsadli guruhga mos kelmasa yoki ma’lum xususiyat bo‘yicha yetarlicha mos kelmaganda;
- Kontent maqsadli guruhga yetarlicha tegishli bo‘lmaganda;
- Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish dolzarb bo‘lmaganda;

Moslashuvning quyidagi shakllari mavjud:

- Didaktik materialni tushunishni kafolatlovchi masalaga xizmat qiladigan tarjima nemischa-o‘zbekcha lug‘at indeksini yaratish

- Matn turini o‘zgartirishda matn mazmunini saqlab qolish;
- Tarkibni yangilash
- Lingvistik soddalashtirish
- Ommaviy axborot vositalarini o‘zgartirish
- Mashqlar tartibini o‘zgartirish
- Ijtimoiy shakllarning o‘zgarishi

Yuqorida qayd qilingan moslashuv shakllarini ishchi guruhi rahbari prof. X. Raximov tuzgan dastlabki shakli, ya’ni nemis tili darsliklaridagi mavzularga oid asosiy so‘z va iboralarning ikki tilli lug‘ati ilova qilindi. Yuqorida aytilgan boshqa shakllari ustida respublika ta’lim markazi metodik ishlarni davom ettirmoqda.

**Darsliklar tahlili.** Albatta bu darsliklarni ma'lum bir sinflarga moslashtirish jarayonida o'quvchining nuqtai nazari hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan darslikni tanlash muhimdir. Har bir o'qitish uslubi turli xil o'qitish maqsadlari va o'qitish tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz umumta'lim mакtablarida foydalanib kelinayotgan Klett nashriyoti darsliklari ham yuqoridagi moslashuv shakllari bo'yicha moslashtirilgan. Berilgan grammatik qoidalar o'quvchilarda nemis tilida qat'iy qoidalar asosida gaplar tuzishda misollar bilan ko'rsatilgan. O'quvchi har bir mavzuda yangi so'zlar bilan tanishish imkoniyatiga ega, o'qish uchun berilgan matnlar yuzasidan savollar esa o'quvchini fikrlashga hamda, fikrini nemis tilida so'zlashga o'rgatadi. Har bir sinf darsligida tinglab tushunish mashqlari mavjud bo'lib, unda o'quvchilarga;

- Tovushlarni farqlash
- Tovushlar tahlili
- So'zlardagi tovushlar identifikatsiyasi
- Bir-biriga o'xshash bo'lgan so'zlarning va tovushlarni farqlash

kabi imkoniyatlarni beradi.

Keling endi 6-sinf uchun yaratilgan darslik „*Die Deutschprofis*“ (Stufe A2.1) haqida qisqacha to'xtalsak. Darslik amaliy o'qitish tajribasiga hamda, aktual uslubiy va didaktik jihatlarni hisobga olgan holda qayta ishlangan. Darslik o'quvchilarda motivatsiyani oshirish bilan birga, asta sekin o'zlari ham nemis mutaxasislariga aylanishadi.

**Darslikning tuzilishi.** Darslik 12 ta mavzuni va har bitta mavzu o'ntadan sahifani o'z ichiga olgan. Ushbu keng qamrovli o'quv materiali kichik bosqichlarda tuzilgan va ko'plab harakatli o'yinlar, boshqotirmalar, qofiyalar, qo'shiqlar va rasmlardan iborat uslubiy jihatdan xil darslarni o'tish imkonini bera oladi.

„O'quvchi kitobining 2 -mavzusida „Meine Freunde“ mavzusi o'quvchi o'z do'stlarini erkin tasvirlay olishida ko'mak bera oladigan turli xil didaktik usullarda

## 2 MEINE FREUNDE

Mein Freund ist groß und sportlich. Seine Haare sind ... Er läuft sehr gern laufen.

Meine Freundin trägt eine Brille. Sie hat lange braune Haare.

Mein Freund hat braune Haare. Er trägt gern jeans und sieht toll aus.

Meine Freundin sieht toll aus. Sie hat gleiche hellbraune Haare. Ihre Augen sind groß.

**1**

- Sieh die Fotos an. Zu wem passen die Beschreibungen?
- Was passt zu deinem Freund / deiner Freundin? Sammle Wörter.
- Beschreibe kurz deinen Freund / deine Freundin.
  - Mein Freund heißt ... Er ist ... Jahre alt. Er hat ... Haare und ... Augen. Er trägt gern ...
  - Meine Freundin ist ... Sie hat ... Haare. Ihre Augen sind ... Sie sieht ... aus.

*Das lernst du:  
das Aussehen und den  
Charakter beschreiben;  
über Freundschaft sprechen;  
eines Bergsteigers - ein  
Buch / einen Film vorstellen*

yoritilgan.

Bunda o‘quvchilar rasmlar yordamida do‘stlarining tashqi ko‘rinishini, xarakterini so‘zlab berish bilan birga do‘stlik haqida ham o‘z fikrlarini bayon qilishni o‘rganadilar

**3**

- Was ist für dich bei Freunden wichtig? Sortiere.

wichtig	unwichtig

nett • fleißig • klug  
ruhig • sportlich  
witzig • schön • mutig  
ehrlich • lustig • stark  
schüchtern

**b. Wie muss dein Freund / deine Freundin sein? Erzähle.**

Main Freund muss nett sein.  
Das ist wichtig.

Meine Freundin muss nicht schön sein.  
Das ist unwichtig.

Yuqorida berilgan mashq orqali o‘quvchilar do‘stlarining xususiyatlarini, va ulardagi o‘zlari uchun qaysi jihatlari muhim yoki aksincha ekanligini gapirishni o‘rganadilar.

- **Masalan:** *Mein Freund muss ehrlich sein. Das ist wichtig.*
- *Meine Freundin muss nicht sportlich sein. Das ist unwichtig.*

Bu mashq yordamida o‘quvchilar nafaqat sifatlarni, balki „*müssen*“ modal fe‘li bilan gaplar tuzishni o‘rganadilar.

Darsliklar majmuasi o‘quvchilarda til ko‘nikmasini rivojlantirish bilan birga dunyo qarashni ham kengaytirish uchun muhim omil hisoblanadi. Undagi „*Auf Klassenfahrt*“ (*Maktab ekskursiyasi*) mavzusi orqali maktab o‘quvchilari tili o‘rganilayotgan mamlakatlarning diqqatga sazovor joylariga virtual sayohat qila olish imkoniga ega bo‘ladilar va bu o‘quvchilarda tilni mukammal o‘rganib Germaniya, Avstriya davlatlarining katta shaharlarini borib ko‘rishga ishtiyoqini oshiradi deb umid qilamiz.

The image shows two pages from a German textbook. The left page features a large photo of Salzburg's historic city center and Hohensalzburg Fortress. Below the photo, the title "AUF KLASSENFAHRT" is written in large yellow letters. A yellow starburst contains the number "6". At the bottom, there are three sections of exercises: "a. RÄTSEL", "b. Was findet ihr auf dem Foto? Zeigt und spricht.", and "c. Gefällt dir die Stadt? Warum?". The right page is titled "WIR ENTDECKEN DIE STADT" and contains a grid of 12 small photos of Salzburg landmarks like the Festung Hohensalzburg, der Dom, das Getreidegasse, das Festungsmuseum, der Souvenirladen, der Brunnenturm, das Schlafzimmer, das Haus der Natur, die Orgel, das Schloss Hellbrunn, and die Welt Raumhalde. Below the grid, there are three numbered tasks: "2. REISEBERICHTERSTÄFTUNG", "3. LIES DAS ANZEIGEN UND VERGLEICHEN MIT DEM TAGEBUCH. WELCHE PASST?", and a section for school classes titled "SALZBURG FÜR KINDER" and "SCHULKLASSEN ENTDECKEN EINE DER SCHÖNSTEN STÄDTE EUROPASI".

Albatta bunda darslikdagi rang-barang suratlar o‘quvchini o‘ziga jalb qilmasdan qolmaydi. O‘quvchi nemis tilidagi bir nechta joy nomlari bilan ham tanishadilar. Jumladan,

- *Der Dom- sobor, bosh cherkov*
- *Die Kirche- cherkov*
- *Das Rathaus-shahar hokimiyati*
- *Die Burg- qal‘a, qo‘rg‘on*
- *Die Brücke- ko‘prik*

Ko‘rinib turibtiki, mavzular aniqlikka yo‘naltirilgan va o‘quvchida har bir bo‘limdan yetarlicha va bilim va ko‘nikmaga ega boladilar.

**Xulosa.** Shuni aytishimiz joizki, darsliklar darsning mazmuniga va uni samarali tashkil etishda o‘zining ahamiyatli ta’sirini ko‘rsatadi, shuning uchun darslik o‘zida nimalarni qamrab olganligiga va ularni qanday taqdim etilayotganiga e’tibor qaratish juda muhimdir. Darsliklarning vazifasi milliy o‘quv dasturlarini o‘quv amaliyotida qo‘llashdan iborat. Darsliklar darsning asosini tashkil qiladi.

Mashhur nemis pedagogi G. Noyner o‘quv qo‘llanmasi o‘quv dasturida berilgan pedagogik tavsiyalarning konkret modeli deya ta’riflaydi<sup>2</sup>. Shu nuqtai nazardan, Germaniyaning Klett nashriyoti darsliklari bugungi kundagi nemis tili o‘raganayotgan O‘zbekistonidagi umumta’lim maktab o‘quvchilariga nemis tilini mukammal egallashlarida muhim o‘rin tutadi, hamda kitob o‘zidagi mavjud keng ko‘lamdagi ma’lumotlar bilan o‘quvchilarga tilni chuqurroq o‘rganishlarida turtki bo‘layotgani bejiz emas.

### **Adabiyotlar ro‘yxati (references)**

1. J. Jalolov, „Chet tili o‘qitish metodikasi” „O‘qituvchi nashriyoti-Matbaa ijodiy uyi”, Toshkent-2012
2. “Die Deutschprofis“ A2, Lehrerhandbuch/ Testheft, Klasse 6-7, Toshkent „O‘zbekiston“ 2022 -y
3. “Die Deutschprofis“ Übungsbuch/Wörterheft , A2.1,Klasse 6, Toshkent, „O‘zbekiston“ 2022-y
4. “Die Deutschprofis“ Kursbuch mit Audios und Clips online , A2.1,Klasse 6, Toshkent, „O‘zbekiston“ 2022-y
5. “Deutschlehrwerke in Finnland“ „Lehrwerkanalysen der Lehrwerkreihen „Genau“ und „Panorama Deutsch“ Pro-Gradu Arbeit,Universität Oulu, Germanische Philologie, Nadine Turon 2015
6. Authentizität in Lehrwerken, eine Analyse von vier Lehrwerken für Deutsch und Schwedischunterricht

---

<sup>2</sup> G.Neuner (Hrgst) Zur Analyse, Beurteilung und Entwicklung von Lehrwerken für Fremdsprachlichen Deutschunterricht , Langenscheidt, Berlin

## **Internet manbaalar**

7. <https://fledu.uz/uz/>
8. [https://deutsch-lernen.zum.de/wiki/Adaption\\_eines\\_Lehrwerkes](https://deutsch-lernen.zum.de/wiki/Adaption_eines_Lehrwerkes)